

MUVAFFAQIYATLARIM ORTIDAGI ENG KATTA KUCH BU— DADAJONIMNING ISHONCHI

Fayzimuratova Shabnam Nurali qizi.

*Olmalik shahar 1-son Texnikumining 2-bosqich Kompyuter Grafikasi va Dizayn
Operatori yo'nalishining 02-24 guruh talabasi*

Inson hayotida erishilgan har bir yutuq ortida uni qo'llab-quvvatlagan, ishongan insonlar turadi. Men bugun o'z faoliyatimda qo'lga kiritgan natijalarimni eslar ekanman, ularning barchasi avvalo dadajonimning menga bo'lgan ishonchi va motivatsiyasi tufayli ekanini chuqur his qilaman.

Adabiyotga bo'lgan qiziqishim 5-sinfda she'r yozishdan boshlandi. O'sha paytlarda ilk ijodiy qadamlarimni qo'yayotganimda dadajonimning dalda va rag'batlari menga katta kuch bag'ishlardi. Natijada 5-sinfligimdayoq she'rlarim "Bekobod Ovozi" gazetasida chop etila boshladi. Bu men uchun katta ilhom va mas'uliyat maktabi bo'ldi.



Ijodiy izlanishlarim yillar davomida davom etdi. 9-sinfda she'rlarim "Sir bo'yi ilhomlari" she'riy to'plamida nashr qilindi. Shu davrda Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga nomzodim qo'yilib, 2-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldim. Bu natijalar meni yanada ko'proq mehnat qilishga undadi. Hozirda Olmalik shahar 1-son Texnikumida kompyuter grafikasi va dizayn operatori yo'nalishida 2-kursda o'qiyman

Talabalik yillarim ham sermahsul o'tdi. 1-kursda she'rlarim yana "Sir bo'yi ilhomlari" to'plamida ikkinchi bor nashr etildi. 2-kursda esa Zulfiya nomidagi davlat mukofoti tanlovida tuman bosqichida 1-o'rin, viloyat bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritdim. Shu bilan birga, maqolalarim chet el jurnallarida tarjima qilinib chop etildi.

2025-yilda adabiyotning bugungi kundagi rivoji haqida yozgan maqolam tarjima qilinib, muvaffaqiyatli baholandi. Shuningdek, ta'lim sohasidagi fidoyi xizmatlarim uchun ko'krak nishoni, sertifikat va tashakkurnoma bilan taqdirlandim.

Bu yutuqlarimning har biri ortida dadajonimning cheksiz ishonchi, sabrli yo'l-yo'riqlari va motivatsiyasi mujassam. U kishi menga har doim o'z kuchimga ishonishni, orzularim sari qat'iyat bilan intilishni o'rgatdi.

Dadajonimlar o'z otalaridan avto-avarya hodisasi tufayli 2-yoshliklaridan ayrilib qolganlar.

Va doimo menga shunday dep kelganlar, qizim men

sening yoshingda 6-7 yoshimda oilaviy sharoit tufayli o'sha og'ir mehnatga kattalar qatori kirishganman shu sababli ta'lim olishga vaqtim bo'lmagan suyanadigan ishonadigan mehribon otam yo'q edi. Lekin sening yoningda men borman onag bor va doimo seni qo'llab quvvatlaymiz.

Yurtimizda yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangin, dep kelganlar hozirgacha ham shunday ishonch bilan men dadajonimga suyanaman.

Men uchun eng katta mukofot — dadajonimning ishonchini oqlashdir.

Bugun ham yangi marralar sari qadam qo'yar ekanman, meni oldinga boshlayotgan eng katta kuch — bu ota mehridan tug'ilgan ishonchdir. Aynan shu ishonch meni yanada katta maqsadlar sari ilhomlantirib kelmoqda.